



**SUPERLIGA VA PRO LIGA FUTBOL KLUBLARI  
QOSHIDAGI U-14 VA U-16 JAMOALARI  
O'RTASIDA O'ZBEKISTON CHEMPIONATINI  
O'TKAZISH TO'G'RISIDAGI  
NIZOM**

**UZBEKISTAN  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE**

## I. Maqsad va vazifalari

**1.** Superliga va Pro liga futbol klublari qoshida tashkil etilgan U-14 va U-16 jamoalari o'rtasidagi O'zbekiston championati Osiyo futbol konfederatsiyasining Litsenziyalash talablari asosida o'tkaziladi hamda quyidagilarni nazarda tutadi:

- bolalar-o'smirlar futbolini rivojlantirish va ommalashtirish;
- professional futbol klublari bazasi hamda poydevorini rivojlantirish;
- yosh futbolchilarning sport mahoratlarini takomillashtirish;
- istiqbolli futbolchilarni aniqlash va ularni o'smirlar hamda yoshlар terma jamoalariga tavsiya etish uchun ko'maklashish;
- O'zbekiston terma jamoalari uchun nomzodlarni saralash;
- klublar akademiyalari va maktablari murabbiylari tomonidan o'tkazilgan o'quv-mashg'ulotlar bo'yicha yakuniy xulosalar chiqarish;
- sport-ommaviy tadbirlar bo'yicha kalender rejasini bajarish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3610-son qarori va 2019-yil 4-dekabrdagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-son Farmonini amalga oshirish;
- g'oliblarni aniqlash.

## II. Musobaqlarni boshqarish

**2.1.** Musobalar o'tkazilishiga umumiyligi rahbarlik Championatni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi. Tashkiliy qo'mita tarkibiga **1-ilovaga** muvofiq O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, O'zbekiston Professional futbol ligasi vakillari kiradi.

**2.2.** Musobaqalarni bevosita O'zPFL tomonidan o'tkaziladi. Musobaqalarda O'FA Hakamlar bo'limi tomonidan tayinlangan va tavsiya qilingan hakamlar kollegiyasi faoliyat olib boradi.

**2.3.** Mazkur Nizom "2021-yilgi mavsumda O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan o'tkaziladigan musobaqalar reglamenti"ga (keyingi o'rnlarda — Reglament) muvofiq ishlab chiqilgan hamda u O'zbekiston U-14 va U-16 championatlarini o'tkazish tartibini belgilaydi.

## III. Ishtirokchilar

**3.1.** Championatda O'zPFL Musobaqalarni o'tkazish bo'limiga Reglamentda talab qilingan arizalarni taqdim etgan Superliga hamda Pro liga futbol klublari qoshidagi bolalar-o'smirlar futbol akademiyalari va futbol maktablari tarbiyalanuvchilaridan iborat jamoalar ishtirok etadi.

**3.2.** Musobaqalarda istisno tariqasida futbol maktabi O'zPFL tomonidan professional futbol klublari qoshidagi futbol maktablariga (akademiyalari) qo'yilgan talablarga javob beruvchi boshqa maktablar ham ishtirok etishi mumkin mumkin.

**3.3.** U-14 championatida 2007 hamda 2008-yilda tug'ilgan futbolchilar, U-16 championatida esa 2005 va 2006-yilda tug'ilgan futbolchilargina ishtirok etadi.

**3.4.** Har bir jamoa 26 nafargacha: 22 futbolchi, 2 murabbiy, 1 shifokor va 1 video operatorni ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. Superliga va Pro liga futbol klublari o'z futbol akademiyalari/maktablari tarbiyalanuvchilardan shakllantirilgan o'smirlar jamoasini yoki o'z futbol akademiyasi/maktabiga ega bo'lmasa, shu klub bilan o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnomasi mavjud bo'lgan hududiy futbol akademiyasi/maktabi tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan jamoani ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. Bunda jamoalar murabbiyida OFK talabiga muvofiq murabbiylik huquqini beruvchi litsenziya bo'lishi hamda u klub shtatida qayd etilishi majburiy hisoblanadi.

#### **IV. Musobaqalar hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi**

**4.1.** O'zPFLga quyidagi ariza hujjatlari taqdim etiladi:

- ariza beruvchining nomi yozilgan musobaqada qatnashish bo'yicha taqdim etilgan ariza. Bunda futbolchining arizasiga futbolchining to'liq ism-sharifi va fotosurati, tug'ilgan yili va sanasi, yashash joyi, maydondagi ampluasi, fuqarolik pasporti (ID kartasi)ning raqami, futbolchi pasportining raqami ilova qilinadi. Rahbariyat tarkibidan esa to'liq ism-sharif va fotosurat, tug'ilgan yili, yashash joyi kabi ma'lumotlarni kiritish talab qilinadi. Futbol klubi, akademiyasi/maktabi rahbariyati imzo va muhri bilan tasdiqlangan jamoaning barcha vakillari lavozimlari bilan ko'rsatilgan tarkibi va shifokorning har bir futbolchi familiyasi qarshisiga hamda umumiy varaqaga muhri qo'yilgan ariza varaqasi so'raladi;
- futbol klubi bilan murabbiy o'rtaida tuzilgan mehnat shartnomasi ikki nusxada;
- har bir futbolchi uchun tibbiyot muassasasi tomonidan tasdiqlangan hamda futbolchining fotosurati aks etgan maxsus tibbiy ruxsatnoma;
- musobaqa ishtirokchisining (shu jumladan vakillarning) fuqarolik pasporti (ID kartasi)ning asl nusxasi;
- musobaqa ishtirokchilarining hayoti va sog'lig'ini Musobaqa o'tkazilayotgan davrda baxtsiz hodisalardan sug'ortalovchi sug'ortalash polislарining asl nusxalari;
- hududiy futbol assotsiatsiyasida ro'yxatdan o'tkazilgan har bir futbolchi pasportining nusxasi;

- klub akademiyasi/maktabi va futbolchi o'rtasida tuzilgan, klub/akademiya/maktab va futbolchining otasi yoki onasi tomonidan imzolangan ikki tomonlama kelishuvning 2 nusxasi, kelishuvni imzolagan ota yoki ona pasporti (ID kartasi)ning nusxasi;
- Pro liga jamoalari uchun agar ularda o'zining futbol akademiyasi/maktabi bo'lmasa, hududiy futbol akademiyasi/maktabi bilan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning nusxasi;
- litsenziya olish uchun: musobaqada ishtirok etadigan har bir futbolchi uchun 3x4 sm o'lchamli 1 fotosurat;
- ariza hujjatlari 2021-yilning 15-sentabr kuniga qadar Tashkiliy qo'mitaga taqdim etilish kerak.

**4.2.** Jamoalardan ariza qabul qilish championat boshlanishidan 1 kun oldin to'xtatiladi. Championat o'tkazilayotganda jamoa tarkibiga boshqa futbolchilarni kiritish uchun taqdim etilgan ariza qabul qilinmaydi.

**4.3.** Futbol akademiyasi/maktabi, Futbol mahorati maktabi va Bolalar-o'smirlar futbol maktabi tarbiyalanuvchisi o'z yoshi uchun o'tkazilayotgan musobaqada ishtirok etish uchun 2021-yilning 15-sentabrigacha boshqa klubning Futbol akademiyasi/maktabi, Futbol mahorati maktabi va Bolalar-o'smirlar futbol maktabida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin.

## **V. Musobaqalarni o'tkazish muddatlari, joyi va tartibi**

**5.1.** Superliga va Pro liga futbol klublari qoshidagi U-14 jamoalari o'rtasidagi O'zbekiston championati 2021-yilning 4-14-oktabr kunlari oralig'ida Toshkent shahrida markazlashtirilgan holda tashkil etiladi. U-16 championati esa 2021-yilning 11-21-noyabr kunlari oralig'ida Toshkent shahrida markazlashtirilgan holda tashkil etiladi. Uchrashuvlar boshlanish vaqtini O'zPFL tomonidan belgilanadi. Musobaqalar FIFAning futbol o'yini qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.

**5.2.** Jamoalar to'p suradigan stadionlar qur'a tashlash marosimidayoq aniqlab olinadi va qaysi jamoaning qaysi stadionda o'ynashi masalasi qur'adan keyin avtomatik ravishda aniq bo'ladi.

## **VI. Musobaqa formati va shartlari**

**6.1.** Championat aralash tizimda o'tkaziladi. Dastlab jamoalar guruh bosqichida o'zaro bir martadan kurash olib boradi va uning yakuniga ko'ra pley-off ishtirokchilari aniqlab olinadi. Guruhlarni muvaffaqiyatsiz yakunlagan jamoalar musobaqa bilan xayrashadi.

Musobaqa Qur'a tashlash yo'li bilan jamoalar 4 tadan 5 ta guruhga ajratib olinadi. Bunda jamoalar savatlarga bo'linmaydi.

Guruh bosqichi yakuniga ko'ra, har bir guruh peshqadami, shuningdek, guruhlarda mos ravishda eng yaxshi ko'rsatkich qayd etgan 3 ta jamoa ¼ final bosqichiga yo'llanma oladi.

Pley-off uchrashuvlari bitta o'yindan iborat bo'ladi. Asosiy vaqtida g'olib jamoani aniqlashning imkonini bo'lmasa, navbat penaltilar seriyasiga beriladi.

Pley-off bosqichlariga alohida qur'a tashlanadi. Bunda guruhlarda eng yaxshi natija qayd etgan 4 ta jamoa ¼ finalda o'zaro to'qnash kelmasligi ta'minlanadi. ½ final qur'asi oldidan barcha jamoa imkoniyati tenglashtiriladi.

**6.2.** Jamoalar futbolkasida raqamlari ko'rsatilgan uy va safar liboslari to'plamiga ega bo'lishi kerak. Maydondagi jamoalar liboslarining rangi bir xil bo'lgan taqdirda taqvim bo'yicha nominal mehmon jamoa libosini almashtiradi.

**6.3.** O'zPFL uchrashuvni o'tkazish uchun futbol o'yini qoidalari talablariga javob beradigan to'plar taqdim etadi. Jamoalar aynan shu to'plarda uchrashuv o'tkazishi majburiy hisoblanadi.

**6.4.** Uchrashuv qaydnomasini to'ldirish Reglamentning 17.8 hamda 17.9-bandlari asosida tartibga solinadi. Futbolchilarni almashtirishlar soni 17.5-band asosida tartibga solinadi.

**6.5.** U-14 championati jamoalari har biri 35 daqiqadan ikki taym o'tkazadi. Bunda tanaffus 10 daqiqa davom etadi. U-16 championati jamoalari har biri 45 daqiqadan ikki taym o'tkazadi va bunda tanaffus 15 daqiqani tashkil qiladi.

**6.6.** Musobaqa g'oliblarini aniqlash Reglamentning 23.1 hamja 23.2-bandlari asosida tartibga solinadi.

**6.7.** Championat tashkiliy qo'mitasi tashkiliy va ariza berish kampaniyasi o'tkazilgandan keyingi barcha omillarni hisobga olib, Musobaqalarni o'tkazish formatini o'zgartirish huquqiga ega.

## **VII. Jamoa rahbarlari va futbolchilarning majburiyatları va javobgarligi**

**7.1.** Musobaqalar ishtirokchilari Reglamentning barcha talablariga to'liq rioya qilishlari shart.

**7.2.** Barcha futbolchilar oyoqni himoya qiluvchi qalqonchalarni taqib maydonga chiqishi shart shart.

**7.3.** Musobaqa davomida sariq kartochkalari soni 2 taga yetgan futbolchi keyingi uchrashuvni o'tkazib yuboradi. Uchrashuv vaqtida to'g'ridan-to'g'ri qizil kartochka olgan futbolchi navbatdagi uchrashuvda qatnashmaydi. Bunda Tartib-intizom qo'mitasi ushbu futbolchi sodir etgan harakat harakteriga qarab, jazoni kuchaytirishi mumkin.

Bir uchrashuvda olingen 2 ta sariq kartochka maydondan chetlatish hisoblanib, bunda o'yinchi bitta uchrashuvni o'tkazib yuboradi. Avvalroq olingen ogohlantirishlar bekor qilinmaydi.

**7.4.** Mazkur Nizomga muvofiq qaydnomaga kiritilmagan yoki diskvalifikatsiyasi bor futbolchi uchrashuvda qatnashgani uchun, shuningdek, biror jamoaning asosli sabablarsiz uchrashuvda ishtirok etmagani uchun jamoaga 0:3 hisobida texnik mag'lubiyat, raqib jamoaga 3:0 hisobida texnik g'alaba yoziladi. Bunda texnik g'alaba olgan tomon uchrashuvda 3:0 hisobidan yirikroq g'alabaga erishgan bo'lsa, texnik g'alaba shu hisob ko'rinishida bo'ladi.

### **VIII. Moliyaviy harajatlar**

**8.** Harajatlar quyidagi ko'rinishda tartibga solinadi:

- jamoalarning xizmat safari (yo'lkira, ovqatlanishi, yashash joyi) va Musobaqlar o'tkaziladigan davr mobaynida o'z futbolchilarini sug'urta qilish bilan bog'liq harajatlar klub tomonidan qoplanadi;
- Musobaqlarni o'tkazish bilan bog'liq qolgan barcha harajatlar O'zPFL tomonidan qoplanadi.

### **IX. Yakuniy qoidalar**

**9.** Ushbu Nizomda ko'zda tutilmagan masalalar Tashkiliy qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi yoki Reglamentda qayd etilgani holatida uning asosida tartibga solinadi.

**Tashkiliy qo'mita**

